

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

S.O. SAIDOV

YARIMO`TKAZGICHLAR FIZIKASI

(Ixtisoslashgan Oliy ta`lim muassasalarining 70530905-
Yarimo`tkazgichlar fizikasi ta`lim yo`nalishi magistrantlari,
talabalari va o`qituvchilar uchun

o`quv uslubiy qo`llanma)

KAMOLOT-2023 y.

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro Davlat Universiteti

S.O. Saidov

YARIMO`TKAZGICHLAR FIZIKASI
(Ixtisoslashgan Oliy ta`lim muassasalari
70530905 - Yarimo`tkazgichlar fizikasi
ta`lim yo‘nalishi magistrantlari,
talabalari va o'qituvchilari uchun o`quv
uslubiy qo`llanma)

KAMOLOT- 2023 y.

Ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanma Buxoro davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2022-yil «30» avgustdagи «1» -sonli yig‘ilish bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan Yarimo`tkazgichlar fizikasi, Yarimo`tkazgich asboblar fizikasi va Yarimo`tkazgichlar parametrlarini aniqlash usullari fanlari dasturlariga asosan tayyorlangan.

Yarimo`tkazgichlar fizikasi fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma Buxoro davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti, Fizika kafedrasining 2023-yil «29» martdagи «29» - sonli yig‘ilish bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan.

Yarimo`tkazgichlar fizikasi fanidan o‘quv uslubiy qo‘llanma Buxoro davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti O‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil «7» apreldagi «2» - sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Muallif:

S.O. Saidov – Buxoro davlat universiteti, «Fizika» kafedrasi dotsenti, kimyo fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

G. Kasimova – Buxoro Muhandislik - texnologiya instituti «Fizika» kafedrasi mudiri, dotsent, fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD);

Sh.Sh. Fayziyev – Buxoro davlat universiteti, «Fizika» kafedrasi mudiri, dotsent, fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD).

MUNDARIJA

Annotatsiya	5
So`z boshi	6
Testlar	10
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	81

Annotatsiya

Yarimo`tkazgichlar fizikasi va ularni tayyorlash texnologiyalari fan va amaliyot o`rtasidagi o`zaro uzviy bog'liqlikning ajoyib namunasi bo`la oladi. O`quv uslubiy qo`llanmada yarimo`tkazgichlar fizikasi asoslari, uning rivojlanish tarixi, ulardan foydalanish, yarimo`tkazgichlar fizikasi va ularni tayyorlash texnologiyalarining rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, ularni amalda qo'llash imkoniyatlariga doir bilimlarni baholash uchun test topshiriqlari keltirilgan. O`quv uslubiy qo`llanma universitetlar va pedagogika institutlarining 70530905 - Yarimo`tkazgichlar fizikasi ta`lim yo`nalishi magistrantlari, talabalari va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Физика полупроводников и технологии их изготовления могут служить прекрасным примером неразрывной связи науки и практики. Учебно-методическое пособие содержит тестовые задания для оценки знаний по основам физики полупроводников, истории ее развития, их использования, перспективам развития физики полупроводников и технологий их изготовления, а также возможности их практического применения. Учебно-методическое пособие предназначено для магистрантов, студентов и преподавателей образовательного направления 70530905-физика полупроводников вузов и педагогических институтов.

The physics of semiconductors and their manufacturing technologies can serve as an excellent example of the inextricable link between science and practice. The training manual contains test tasks for assessing knowledge on the basics of semiconductor physics, the history of its development, their use, prospects for the development of semiconductor physics and manufacturing technologies, as well as the possibility of their practical application. The training manual is intended for undergraduates, students and teachers of the educational direction 70530905-semiconductor physics of universities and pedagogical institutes.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlar qatorida ilm - fan va ta’lim sohasiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonlaridan 2017-yil 20-aprelda “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirishning chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2021-yil 19-martda “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli imzolagan qarorlari va “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarlari ilm-fan va ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada yangi bosqichga ko‘tardi. Yuqorida keltirilgan qarorlar ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarda respublikamiz oliy ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini rivojlantirish, o‘quv-uslubiy, pedagog-kadrlar bilan ta’minlashni sifat darajasini ko‘tarish, fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchi, talabalarни saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda bu vazifalarning amaliy natijadorligiga yo‘naltirilgan bir qator dolzarb topshiriqlar belgilab berildi. Shu nuqtai-nazardan, fizika sohasidagi fundamental ilmiy tadqiqotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimi samaradorligini oshirish va «fan – ta’lim – ishlab chiqarish – hudud» integratsiyasini chuqurlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu amaliy, strategik ahamiyatga ega vazifalarni sifatli amalga oshirish fundamental fanlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Yarimo`tkazgichlar insoniyatning taraqqiyot yo‘liga juda dadil va keng ko‘lamda kirib kelib, tobora yangi sohalarda ishlatilmoqda. Yarimo`tkazgichlar fizikasi va yarimo`tkazgichlarni tayyorlash texnologiyalari fan bilan amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro uzviylilikning yorqin namunasi bo‘la oladi. Ular - texnologiyada, tibbiyot, metrologiya, axborotni qayta ishlash va uzatish, fizik, kimyoviy va biologik tadqiqotlar hamda harbiy sohalarda bizning imkoniyatlarimizni kengaytirdi. Yarimo`tkazgichlar fizikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning o‘sib borishi takomillashgan yangi yarimo`tkazgich asboblarni yaratish imkoniyatini ochadi, bu esa ularning qo‘llanish ko‘lамини yanada kengaytiradi. Misol tariqasida, qattiq jismli yarimo`tkazgich lazerlarda nurlanish quvvati va boshqa fizik sifatlarining takomillashtirilishi lazerli boshqariladigan termoyadro sintezini amalga oshirishning yangi istiqbollarini ochib beradi, bu esa insoniyat uchun global muammo bo‘lgan energiya tanqisligini bartaraf etib, insoniyatni deyarli bitmas-tuganmas energiya manbai bilan ta’minlaydi.

Yarimo`tkazgichlar fizikasi sohasidagi bilimlarning magistrantlar, talabalar

va o`quvchilar tomonlaridan qay darajada o`zlashtirilganligi darajasini aniqlashning dolzarbliyi yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqadi hamda ushbu yo`nilishda faoliyat ko`rsatayotgan professor-o`qituvchilar uchun juda muhimdir. Shu o`rinda ta`lim-tarbiya oluvchilar bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning asosiy usullaridan biri – test sinovlari to`g`risida qisqacha to`xtalamiz.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil, 5-fevraldagagi «O`zbekiston Respublikasi Oliy o`quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to`g`risida»gi Qarori O`zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo`lib testdan foydalanishga keng yo`l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o`rin olgan test usuli mamlakatimiz ta`lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko`rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo`lgan masala darajasiga ko`tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko`pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro`yxatga asosan turmush darjasini yuqori bo`lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog`lanish mavjud: testlarni qo`llash ta`lim sifatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi; ta`lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog`liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darjasini oshirish uchun zamin yaratadi. Bunday uslublar o`z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o`quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo`nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darjasini aniqlash testlarini yaratish va qo`llash hamda talabalarning o`qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo`ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda ta`sirga javob berish vaqtida bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o`rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo`yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi. Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o`tilgan darslarni o`zlashtirish darjasini to`g`risida, ham navbatda o`rganilishi lozim bo`lgan dars hajmi to`g`risida o`qituvchiga axborot berish; o`qituvchiga o`qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.

Agar testlarni turkumlashda ularning qo`llash maqsadi va vazifalariga asoslanadigan bo`lsak, psixologik testlardan boshqa barcha testlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- intellektual rivojlanish darjasini aniqlovchi testlar;

- pedagogik testlar;
- muayyan kasbga yaroqlilikni aniqlovchi testlar;

Fanning mazmunidan kelib chiqqan holda biz faqat pedagogik test haqida to'xtalamiz. Adabiyotlarda bunday test topshiriqlarining quyidagi shakllari bayon etiladi.

- birdan-bir to'g'ri javobi bo'lgan yopiq topshiriqlar;
- bir necha to'g'ri javoblari nazarda tutilgan Yopiq topshiriqlar;
- bitta so'z (yoki so'zlar) tushirib qoldirilgan gapdan tashkil topgan ochiq topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlash uchun topshiriqlar;
- o'zaro bog'liqliknii (muvofiglikni) aniqlovchi topshiriqlar;
- ayrim fanlar bo'yicha bilimlarning chuqurligini aniqlash bo'yicha topshiriqlari;
- sonni to'ldirishga mo'ljallangan topshiriqlar, bunda sonlar seriyasini topish usulini aniqlash va uni muayyan tartibda belgilash talab qilinadi;
- qarama-qarshi munosabatlarni aniqlash testlari;
- masalalar echishga qaratilgan (matematik, fizik va b.) topshiriqlar;
- chizmalar va sxemalarni tushunishga qaratilgan topshiriqlar;
- shakllar nisbatini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar;
- olingan axborotni o'zlashtirish darajasini aniqlash topshiriqlari;
- sinonimlar va antonimlarni farqlashga oid topshiriqlar;
- analogiya (aynan o'xshashlik)ga oid topshiriqlar;
- o'qilgan matnni tushunishga oid topshiriqlar;
- ko'rsatmalarni bajarishga oid topshiriqlar;
- bilimdonlikni aniqlashga doir topshiriqlar;
- tafakkurni aniqlovchi testlar;
- orfografik testlar;
- til masalalariga doir topshiriqlar va boshqalar.

Mutaxassislik (umumtexnik) fanlardan test topshiriqlari tuzishda yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri javobli), ochiq, muvofiglikni va to'g'ri ketma-ketlikni

aniqlashga oid test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga erishganlikni turli test topshiriqlari yordamida aniqlash (invariant) testlar tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

Agar test topshirig'i matnida, uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi. Bu shakldagi testlarda talabalarning bitta, ikkita so'zdan iborat qisqa va aniq javob berishlari taxmin qilinadi. Bu haqda testga ilova qilingan yo'llanmada bayon etish kerak. Blankaning bo'sh joyida javob uchun zarur bo'lган joy qoldiriladi. Masalan, «Test tushunchasi»yilda tomonidan birinchi marta ishlatilgan.

Yopiq topshiriqlar savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshirig'i tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda EHMga kiritiladi.

Xulosa sifatida test qanday shaklda, qanday ko`rinishda bo`lmasin magistrantlar, talabalar va o`quvchilar bilimini nazorat qilish uchun eng qulay, eng ma'qul va eng maqbul variantdir.

O'quv uslubiy qo'llanma matnida ochiq va yopiq test topshiriqlari komp'yuter variantida keltirilgan bo`lib, ularagini to`g`ri javoblarni turli o'rnlarda joylashtirib variatsiya qilish mumkin.

Ushbu o`quv uslubiy qo'llanma Yarimo`tkazgichlar fizikasi, Yarimo`tkazgich asboblar fizikasi va Yarimo`tkazgichlar parametrlarini aniqlash usullari fanlaridan muallifning o`quv jarayonida foydalanilgan materiallari asosida tuzilgan bo`lib, u ixtisoslashgan Oliy ta`lim muassasalarining 70530905 - Yarimo`tkazgichlar fizikasi ta`lim yo'nalishida o`qiyotgan magistrantlari va talabalarining bilim, ko`nikma va malakalarini baholash, nazorat va diagnostika qilish uchum mo`ljallangan.

TESTLAR

Ionlanish potensiali deb.....

normal holatda turgan elektroneytral atomdan bitta (birinchi) elektronni uzib chiqib ketish uchun kerak bo'lgan va elektron-voltlar (eV) da o'lchanadigan energiyaga aytildi.

normal holatda turgan noelektroneytral atomdan bitta (birinchi) elektronni uzib chiqib ketish uchun kerak bo'lgan va elektron-voltlar (eV) da o'lchanadigan energiyaga aytildi.

normal holatda turgan atomdan bitta (birinchi) elektronni uzib chiqib ketish uchun kerak bo'lgan va Kilo elektron-voltlar (KleV) da o'lchanadigan energiyaga aytildi.

normal holatda turgan elektroneytral atomdan ikkita (birinchi) elektronni uzib chiqib ketish uchun kerak bo'lgan va elektron-voltlar (eV) da o'lchanadigan energiyaga aytildi.

Metallarning ionlanish potensiali metallmaslarnikidanbo'ladi. Shuning uchun ular kuchli qaytaruvchilar hisoblanadilar.

kichik;

katta;

teng;

to`gri javob yo`q.

Atomlar manfiy zaryadlangan holga ham o'tishi mumkin. Buning uchun ular o'zlariga bitta ortiqcha elektronni qo'shib olishlari kerak. Shunday jarayon vaqtida ajralib chiqadigan energiyagadeyiladi.

ushbu atomning elektronga moyilligi;

ushbu atomning elektronga to`yinishi;

ushbu atomning elektron yutish energiyasi;

elektronga moyillik.

Biror element atomi uchun ionlanish potensiali va atomning elektronga moyilligi budeyiladi va u ξ (ksi) harfi orqali ifodalanadi.

ikki kattalikning yig'indisi elektromanfiylik;

ikki kattalikning ko`paytmasi elektromanfiylik;

ikki kattalikning yig'indisi elektromusbatlik;

ikki kattalikdan kattasi yig'indisi elektromanfiylik.

Ionlanishni amalga oshirishning qator usullari ma'lum. Ular.....

termik ionlanish, elektr maydon ta'sirida va elektron to'qnashishi tufayli ionlanish, fotoionlanish va boshqalar.

Termik ionlanish va elektron to'qnashishi tufayli ionlanish, fotoionlanish va boshqalar.

Elektr maydon ta'sirida va elektron to'qnashishi tufayli ionlanish, fotoionlanish va boshqalar.

Termik ionlanish, elektr maydon ta'sirida va elektron to'qnashishi tufayli ionlanish va boshqalar.

Metallar energetik zonalari elektron bilan to'laband bo'ladi va ularga tashqaridan kuchsiz elektr maydon ta'sir etsa, elektronlarjoylashgan uzluksiz bo'shzonalariga o'tib olib, ma'lum yo'nalishda harakat qiladi va elektr toki hosil bo'ladi.

qilinmagan, yuqorida, o'tkazuvchanlik;

qilingan, pastda, o'tkazuvchanlik;

qilinmagan, yuqorida, ta`qiqlangan;

qilinmagan, Fermi sathida, o'tkazuvchanlik;

Metallarda valent va o'tkazuvchanlik energetik zonalarhosil qilgan bo`ladi.

bir-birlari bilan "chaplashib" uzluksiz zona;

bir-birlaridan "ajralgan" uzluksiz zona;

bir-birlari bilan "ko`ndalang" zona;

bir-birlari bilan "chaplashib" nouzluksiz zona.

Yarim o'tkazgichlarga esa valent zona elektronlar bilan to'lgan bo'lib, agar elektronlar o'tkazuvchanlik zonasiga o'tmasa, ular erkin bo'lmaydi. Bu zona valent zonadanenergetik masofada joylashgan bo'ladi, unda ΔE – taqiqlangan zonaning eni.

$\Delta E \sim 0,1-2$ eV;

$\Delta E \sim 0,3-2$ eV;

$\Delta E \sim 0,4-2$ eV;

$\Delta E \sim 0,5-2$ eV.

Agar elektronlar valent zonadan o'tkazuvchanlik zonaga o'tmasa, tashqi elektr maydon ta'siri bilan tok

hosil bo'lmaydi;

hosil bo'ladi;

hosil bo'lgan tok maksimal bo'ladi;

barcha javoblar to`g`ri.

Dielektriklarda o'tkazuvchanlik zonasiga bilan valent zonasiga orasidagi energetik masofa eng kamida va undan ko'proq bo'lib, umuman bo'lmaydi.

$\Delta E = 2 \text{ eV}$, erkin elektronlar;

$\Delta E = 3 \text{ eV}$, harakatchan ionlar;

$\Delta E = 4 \text{ eV}$, harakatchan ionlar;

$\Delta E = 5 \text{ eV}$, erkin elektronlar;

Yarim o'tkazgichlar uchraydi.

atomlar (germaniylar, kremniylar, tellur, selen va h.k.) shaklida va kimyoviy birikmalar shaklida (sulfidlar, selenidlar va h.k.);

ionlar (germaniylar, kremniylar, tellur, selen va h.k.) shaklida va kimyoviy birikmalar shaklida (sulfidlar, selenidlar va h.k.);

faqat atomlar (germaniylar, kremniylar, tellur, selen va h.k.) shaklida;

faqat kimyoviy birikmalar shaklida (sulfidlar, selenidlar va h.k.).

Yarimo'tkazgichlarning solishtirma qarshiligi oralig`ida bo'ladi.

$\rho = 10^{-4} - 10^5 \text{ Om} \cdot \text{sm}$;

$\rho = 10^{-4} - 10^4 \text{ Om} \cdot \text{sm}$;

$\rho = 10^{-4} - 10^3 \text{ Om} \cdot \text{sm}$;

$\rho = 10^{-4} - 10^2 \text{ Om} \cdot \text{sm}$.

Germaniyn (Ge) — Mendeleev davriy sistemasining to'rtinchi guruhibiga kiruvchi element hisoblanadi. Uni olishda xom ashvo vazifasini tarkibida germaniy bo'lgan o'taydi.

rux va sulfid rudalari, shu bilan birgalikda ko'mir tuzlari;

mis va sulfid rudalari, shu bilan birgalikda ohaktosh;

rux va sulfid rudalari, shu bilan birgalikda ohaktosh;

ko'mir tuzlari.

Tozalangan yarim o'tkazgichli materialda, ya'ni germaniyada aralashmalar % (massasi bo'yicha), kremniyda esa % (massasi bo'yicha) dan ortmasligi lozim.

$10^{-9}, 10^{-11}$;

$10^{-9}, 10^{-10}$;

$10^{-9}, 10^{-12}$;

$10^{-7}, 10^{-11}$;

Germaniy och kumushsimon rangda bo'lib, zichligi va erish harorati ga teng.

$5320 \text{ kg/m}^3, 937,2^\circ\text{C}$;

5320 kg/m ³ , 947,2°C;
5220 kg/m ³ , 937,2°C;
5320 kg/m ³ , 927,2°C.

Kremniy (Si) – Mendeleev davriy sistemasining to‘rtinchi guruhiga kiruvchi element hisoblanadi. Kremniy tabiatda kremnezemko‘rinishida keng tarqalgan bo‘lib, kremnezem kremniyning texnik navlari olishda xom ashyo vazifasini o‘taydi.

SiO ₂ ;
SiO ₃ ;
SiO ₄ ;
Si ₂ O ₂ .

Kremniy germaniyga nisbatan ishlatiladi, chunki undan tayyorlangan yarim o‘tkazgichli priborlarning ishchi harorat chegarasi ga teng bo‘lsa, germaniy asosida tayyorlanganlariniki esa ni tashkil etadi.
ko‘proq, 130-200°C, bor yo‘g‘i 80-100°C;
kamroq, 80-100°C , 230-240°C;
ko‘proq, 300-400°C, bor yo‘g‘i 180-200°C;
to`g`ri javob yo`q.

Yarim o‘tkazgichli integral sxemalarning asosini tayyorlashda keng qo‘llaniladi.

kremniy;
germaniy;
galliy;
arsenid.

Selen (Se) — Mendeleev davriy sistemasining oltinchi guruhiga kiruvchi element hisoblanadi. Selenni olishda xom-ashyo vazifasiniqoladigan qoldiqlar bajaradi.

misni elektrolitik yo‘l bilan tozalash paytida;
ruxni elektrolitik yo‘l bilan tozalash paytida;
germaniyni elektrolitik yo‘l bilan tozalash paytida;
rudalarni elektrolitik yo‘l bilan tozalash paytida;

Eritilgan amorf selenni erish harorati dan xona xaroratigacha sekinlik bilan sovutish orqali kulrang kristall tuzilishli selen olinadi. Kristall selen tipidagi polikristal tuzilishdagi aralashmali yarim o‘tkazgich hisoblanadi.

220°C, n-;
200°C, n-;

220°C, p-;

200°C, p-.

Polikristall kremniy karbididanximiyaviy jihatdan tozaligi bilan ajralib turuvchi monokristalli kremniy karbidi olinadi.

inert gazda haydash yo‘li bilan;

noinert gazlarda haydash yo‘li bilan;

kislorodda haydash yo‘li bilan;

to`g`ri javob yo`q.

Galliy-arseniddan tayyorlangan asboblarda n-p-o‘tish uchun ishchi haroratgacha ruxsat berilgan, ya’ni bu germaniy va kremniy asosida tayyorlangan yarimo’tkazgichlarnikidan yuqori qiymatlarda bo‘ladi.

300—400°C;

200—300°C;

100—200°C;

500—800°C.

20°C haroratda galliy arsenidining asosiy xarakteristikalari quyidagiga teng: zichligi, ρ = ϵ = Erish harorati

5400 kg/m³, 10⁴-10⁹ Om·sm, 11,2, 1237°C;

5400 kg/m³, 10⁴-10⁹ Om·sm, 15,2, 1237°C;

5400 kg/m³, 10⁴-10⁹ Om·sm, 14,2, 1237°C;

5400 kg/m³, 10⁴-10⁹ Om·sm, 8,2, 1237°C;

Namlik va radiatsion nurlanishlar ko‘rinishidagi tashqi ta’sirlar kuchli darajada yarim o‘tkazgichli elementlarni xarakteristikalarini, shuning uchun tashqi ta’sirdan himoyalanish maqsadida ularni germetik (metall, keramik yoki plastmassali) korpuslarga joylashtiriladi.

pasaytiradi;

kuchaytiradi;

o`zgartirmaydi;

to`g`ri javob yo`q.

Kristall deganda,

qattiq jismni tashkil etgan atomlaming tartibli va davriy joylashganini tushunamiz.

qattiq jismni tashkil etgan atomlaming davriy joylashganini tushunamiz.

qattiq jismni tashkil etgan atomlaming tartibli tushunamiz.

qattiq jismni tashkil etgan ionlaming davriy joylashganini tushunamiz.

Kristallning eng kichik boiinmaydigan holati bubo‘lib xizmat qiladi.
elementar yacheyska;
davriylik;
tartiblilik;
tartiblilik va davriylik.

Kristall panjaraning atomlarining a,b,c yo‘nalishlari orasidagi burchaklar (α, β, γ) va a,b,c yo‘nalishlar qiymatiga qarab kristall panjaralar tuzilishini xilga bo‘lish mumkin. Bulami Bravye elementar yacheyskalari deb ataladi.

- 14;
- 18;
- 25;
- 232.

..... xil kristall yacheyskalami ta guruhga ajratiladi.

- 14, 7;
- 18, 7;
- 25, 7;
- 14, 9.

Triklin panjarada:

- $a \neq b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Monoklin panjarada:

- $a \neq b \neq c, \alpha = \beta = 90^\circ \neq \gamma;$
- $a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Asosiy markazlashgan monoklin panjarada:

- $a \neq b \neq c, \alpha = \beta = 90^\circ \neq \gamma;$
- $a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$
- $a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Rombik panjarada:

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Asosi markazlashgan rombik panjarada:

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Hajmi markazlashgan rombik panjarada:

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Tomonlari markazlashgan rombik panjarada:

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Tetragonal panjarada:

$$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Romboedrik (trigonal) panjarada:

$$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$$

Geksagonal panjarada:

$$a = b \neq c, \alpha = \beta = 90^\circ, \gamma = 120^\circ;$$

$$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma \neq 90^\circ;$$

$$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$$

$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

Kubik panjarada:

$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$

$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Hajmi markazlashgan kubik panjarada:

$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$

$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Tomonlari markazlashgan kubik panjarada:

$a = b = c, \alpha = \beta = \gamma = 90^\circ;$

$a = b \neq c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b = c, \alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ;$

$a \neq b \neq c, \alpha = \beta \neq \gamma \neq 90^\circ.$

Kristallarda son degan tushuncha mavjud. Bu kristalldagi xohlagan atomning eng yaqin qo'shni atomlari sonini ko'rsatadi.

koordinatsion;

bog`lanishlar;

birikishlar;

markazlashuv.

Kub kristall panjarada 1-tartibli koordinatsion sonlar soni ta bo'iib ular orasidagi masofa, ya'ni panjara doimiysiga teng.

6, $d=a$;

8, $d \neq a$;

9, $d=a$;

6, $d \neq a$;

Kub kristall panjarada 2-tartibli koordinatsion sonlar soni ta va ular orasidagi masofa $d = a\sqrt{2}$ ga teng.

12;

9;

8;

15.

Kub kristall panjarada 3-tartibli koordinatsion sonlar soni ... ta bo'lib, ular orasidagi masofa $d = a\sqrt{3}$ ga teng.

8;

9;

12;

15.

Kristall panjara tekisliklari odatda indekslari (belgilari) bilan aniqlanadi. Odatda ulami (h,k,l) bilan belgilanadi.

Miller;

Bravye;

Nyuton;

Fyodorov.

Kristallardagi elektronlaming energetik holatini to'laroq tasavvur qilish uchun hamda kristallarda rentgen nurlarining difraksiyasini chuqurroq tushunish uchuntushunchasi kiritilgan.

teskari elementar panjara;

elementar panjara;

panjara;

bog`langan elementar panjara.

Teskari elementar panjaraniusuli bilan shakllantirish mumkin. Bunda Bravye panjarasidagi ixtiyoriy tugundan to'g'ri chiziq orqali yaqin tugunlami birlashtiriladi.Undan so'ng bu chiziqlami teng ikkiga bo`ladigan va ularga perpendikulyar chiziqlar o'tkaziladi. O 'sha chiziqlar kesishgan yuzalarda hosil bo`lgan shaklyacheykasi deb ataladi.

Vigner-Zeyts;

Miller;

Bravye;

Fyodorov.

.....- buni gomopolyar bog`lanish deb ham atashadi. Bunday bog`lanishda kristalldagi qo'shni atomlar qarama-qarshi springa ega bo`lgan valent elektronlar ikkita atom orasida umumiy bo`lishi bilan elektron qobiqlar to'ladi.

kovalent bog`lanish;

valent bog`lanish;

atomar bog`lanish;

gomopolyar bog`lanish.

Van-der-Vaals bog`lanishlar boshqa bog`lanishlarga nisbatan o'ta kuchsiz

bog‘lanish bo‘lib, bunday bog‘lanish o‘ta past haroratlardava yuqori bosim ostidagi inert gaz atomlari hosil qilgan kristallarda yuzaga keladi.

T ≈ 1-4 K;

T ≈ 2-4 K;

T ≈ 3-4 K;

T ≈ 1-8 K;

..... - bu kristallardagi atomlarning davriylik va tartibli joylashishining buzilishiga aytildi.

Kristall panjara nuqsonlari;

Davriylik nuqsonlari;

Tartiblilik nuqsonlari;

To`gri javob yo`q.

.....nuqsonlarga geometric o‘lchovlari, panjara doimiysidan uncha katta bo‘mmagan nuqsonlar kiradi. nuqsonlar o‘z tabiatiga ko‘ra yana bir necha xilga bo‘linadi.

Nuqtaviy;

Chiziqli;

Ko‘ndalang;

Bo`ylama.

Kristalldagi kirishma atomlari, ya’ni kristall panjarani tashkil etgan asosiy atomlardan boshqa har qanday atomlar nuqsondir. Chunki, o‘zlarining atom radiusi va massasi bilan asosiy atomlardan farq qilgani uchun ular hatto panjaradagi asosiy atom o‘rnini egallagan bo`lsa, uning atom radiusini farqi tufayli panjara doimiysini o‘zgartiradi, ya’nibuziladi.

davriylik;

panjara nuqsonlari;

tartiblilik nuqsonlari;

To`gri javob yo`q.

.....- ya’ni kristall panjara tugunidagi atomning bo‘shab qolgan o‘rni. Har qanday haroratda (faqat T=0K dan boshqa) atomlar kinetik eneigiyasi ($E_k = kT$) tufayli hamma vaqt o‘z muvozanat holati atrofida tebranib turadi. Bunday atomlamining o‘z o‘rnidan ketishi, tugunlar orasiga joylashishi hisobiga paydo bo`ladi.

Vakansiya;

Nuqson;

Bo`sh o`rin;

To`g`ri javob yo`q.

Vakansiyalaming berilgan haroratdagি konsentratsiyas,

$$N_v = N_s \cdot e^{-Ev/kT}$$

$$N_s = N_v \cdot e^{-Ev/kT}$$

$$N_v = N_s + N_s \cdot e^{-Ev/kT}$$

$$N_v = e^{-Ev/kT}$$

Kimyoviy bog`lanishlar turiga qarab atrofida bo`ladi.

E= 1-5 eV;

E= 2-5 eV;

E= 3-5 eV;

E= 4-5 eV.

Kristallarga katta energiyaga ega bo`lgan radio faol nurlar (α, β, γ) lar ta`sir qilganda ham nuqtaviy nuqsonlar hosil bo`ladi. Bunday nuqsonlarninuqsonlar deb ataladi.

Radiyatson;

Nurlanish;

Chiziqli;

Bo`ylama.

Chiziqli nuqsonlar-kristall panjaraning bir chiziq bo`yicha buzilishidir (chiziq albatta to`g`ri chiziq bo`lishi shart emas). Chiziqli nuqsonlarning eni bir yoki bir necha panjara doimiysidan ortiq bo`lmagan holda, ulaming uzunligi butun kristall uzunligi bo`yicha bo`lishi ham mumkin, bunday nuqsonlardeb ataladi.

Dislokatsiya;

Radiyatson;

Nurlanish;

Chiziqli.

Dislokatsiyalar o`z tabiatiga ko`ra 2 xil bo`lishi mumkin -

chegaraviy va buramali;

chiziqli – bo`ylama;

chegaraviy va bo`ylama;

To`g`ri javob yo`q.

.....dislokatsiyalar ideal kristallning ma'lum bir yuzasiga deformatsiya ta`sir qilishi bilan ustki kristall tekisligining ostgi tekisligiga nisbatan siljigan hisobiga hosil bo`ladi.

Chegaraviy;

Nuqtaviy;

Chiziqli;

Bosimli.

Yarim o‘tkazgich materialining solishtirma qarshiligi harorat oshishi bilan (0 K dan) bilan kamayadi.

eksponensial qonun;

chiziqli;

chiziqli ortadi;

o‘zgarmaydi.

Yarim o‘tkazgichlarda tok tashuvchilaming yashash vaqtini qiymatini juda katta oraliqda o‘zgarishi (10^3 – 10^{11} sek) o‘tatez ishlaydigan hozirgi zamon yaratishga sabab boldi.

hisoblash mashinalari;

integral sxemalar;

katta integral sxemalar;

asboblar.

Yarim o‘tkazgich materialarning metallardan yana bir farqli xususiyati bu tok tashuvchilar harakatchanligi nafaqat o‘ta yuqori qiymatlarga erishshi balki, o‘ta bog‘ ikdir.

harorat hamda nuqsonlarga;

faqat radiatsiyaga;

faqat dislokatsiyalarga;

faqat nuqsonlarga.

..... kristall panjara-bu tomonlari markazlashgan ikkita kub elementar panjaraning hajm dioganali bo‘yicha $1/4$ qismi siljigan holatda hosil bo`ladi. Buni almaz turdag'i panjaradan farqi shuki, tomonlari markazlashgan bitta kub elementar panjara faqat bir xil atomlardan, ikkinchi shunday panjara esa boshqa xil atomlardan tashkil topgan boiadi.

Sinkovoy obmanka;

Gally Arsenid;

Geterobirimkalar;

Monokristallar.

..... kristall panjara-bu atomlari zich joylashgan ikkita geksogonal elementar yacheyskaning bir-biriga kiritilgan holda paydo bo`ladi. Bunday kristall panjaralarda atomlar sinkovoy obmaka panjarasidagi tetroedrdagiday 4 ta yaqin atomlar bilan o‘ralgan bo`ladi.

Vyursit elementar;

Sinkovoy obmanka;

Galliy Arsenid;

Geterobirikmalar.

Osh tuzi elementar panjarasi - bu ikkita tomonlari markazlashgan kub elementar yacheikalaming bir-biriga kiritilgan holda paydo bo`ladi. Bunday panjaradaatom boshqa eng yaqinatom bilan o`ralgan bo`ladi.

Bitta, oltita;

Ikkita, to`rtta;

Uchta, to`qqizta;

To`g`ri javob yo`q.

Agar nuqsonlar yarimo`tkazgich materiallarida elektron va kovaklaming o`zgarishiga ta`sir etmasa bunday nuqsonlarnideb ataladi.

elektroneytral nuqsonlar;

elektronostabil nuqsonlar;

elektrostabil nuqsonlar;

elektromanfiy nuqsonlar.

.....nuqsonlarga erkin elektronlar va kovaklarni hosil qiluvchi kirishma atomlar, vakansiyalar va radiyatsion nuqsonlar kiradi.

Elektr faol;

Elektr nofaol;

Elektroneytral;

Elektromanfiy.

Chiziqli nuqsonlarga -kiradi.

Dislokatsiya;

Radiatsiya;

Kristalldagi siljishlar;

To`g`ri javob yo`q.

Yarim o`tkazgichlarda nuqsonlarni o`z tabiatiga ko`ra,
..... va kvazi muvozanatdagi nuqsonlarga bo`lish mumkin.

muvozanatdagi, nomuvozanatdagi;

muvozanatdagi;

nomuvozanatdagi;

To`g`ri javob yo`q.

.....nuqsonlarga berilgan temperatura energiyasi kT ga, mos keladigan kristall panjara nuqsonlariga aytildi.
Muvozanatdagi;
Nomuvozanatdagi;
Chiziqli;
Elektroneytral.

Kristall o'stirilayotganda diffuziya yo'li bilan kiritilgan barcha kirishma atomlarining holati, o'stirilayotgan yoki diffuziya qilinayotgan haroratdan past hamma haroratlardaholatda bo'ladi.
Nomuvozanat;
Muvozanat;
Elektroneytral;
To`g`ri javob yo`q.

.....deb - o'zaro bog'langan va doimo birlashib harakat qiladigan elektron va kovaklar juftiga aytildi.
Eksiton;
Polyaron;
Juft zaryadlar;
Paralar.

.....eiektr faol nuqsonlar emas.
Eksitonlar;
Polyaron;
Juft zaryadlar;
Paralar.

Agarda kirishma atomlaridagi valent elektronlar soni yarimo'tkazgichdagi asosiy atomlari valent elektronlaridan ko'p bo'lsa, ularda qo'shimcha erkin elektronlar paydo boiadi. Bunday atomlar -deb ataladi.
donor kirishma atomlari;
aksektor kirishma atomlari;
kirishma atomlari;
donor atomlari.

Agar kirishma atomlarining valent elektronlari soni yarimo'tkazgich materiali asosiy atomlarini valent elektronlari sonidan kam bo'lsa, kovaklar paydo qiladi. Bunday kirishma atomlari -deb ataladi.
aksektor kirishma atomlari;
donor kirishma atomlari;

kirishma atomlari;
donor atomlari.

Ba'zi bir kirishma atomlari yarimo'tkazgich kristall panjarasida elektronlarni kovaklarni ham o'zgarishiga olib kelishi mumkin, bunday kirishma atomlarkirishma atomlar deyiladi.

Amfoter;
akseptor;
Donor;
Elektroneytral.

Yarimo'tkazgichlarning fizik xossalarini ya'ni, ularni o'tkazuvchanlik, fotosezgirlik va magnit xossalarini juda katta ko'lamda boshqarishning asosiy yo'li bu bunday materiallarga kerakli va aniq konsentratsiya miqdorida.....

Kirishma atomlar kiritishdir;
Nurlantirishdir;
Qizdirishdir;
Aralashma kiritishdir.

Hozirgi zamon texnologiyasi bo'yicha kirishma atomlar 3 xil yo'l bilan kiritiladi

Kristallami o'stirish jarayonida, diffuziya va ion implantatsiya usuii bilan.
Diffuziya va ion implantatsiya usuii bilan.
Kristallami o'stirish jarayonida, diffuziya usuii bilan.
Kristallami o'stirish jarayonida va ion implantatsiya usuii bilan.

Monokristallarni berilgan yo'nalish bo'yicha o'stirish usullarini eng asosiylaridan biri buusulidir.

Choxral`skiy;
N`yumont- Choxral`skiy;
Maqsadli sintez;
Inert gazlar bosimi ostida o'stirishdir.

.....usuli zamonaviy mikrosxemalar va diskret yarim o'tkazgichli asboblarni yaratish jarayonida asosiy texnologik jarayon hisoblanadi.

Diflfuziya;
Implantatsiya;
Choxral`skiy;
N`yumont- Choxral`skiy.

Kirishma atomlarini kiritishning uchinchi usuli bu, kirishma atomlarini vakuumda maxsus yo`llar bilan ularning energiyasini oshirib, kristall yuzani kirishma atomlari bilan bombardimon qilishdir. Natijada kirishma atomlari ionlar energiyasiga mos holda yuzadan bir nechagacha chuqurlikka kiradi, ya`ni yarim o`tkazgich materialining sirt yuzasidagi o`ta yupqa qatlam kirishma atomlari bilan boyitiladi.

10Å dan 100 Å gacha;

5 Å dan 10 Å gacha;

50Å dan 200 Å gacha;

100 Å dan 300 Å gacha.

Diffuziya usuli bilan kirishma atomlarini kiritish hozirgi zamon mikroelektronikasida har xil murakkablikdagi integral sxemalarni yaratish texnologiyasining eng asosiy etaplaridan hisoblanadi. Diffuziya jarayoni 2 ta asosiy bosqichlaridan:bilan aniqlanadi.

kirishma atomlari eruvchanligi va ulaming diffuziya koeffisienti;

kirishma atomlari temperaturasi va ulaming diffuziya koeffisienti;

kirishma atomlar eruvchanligi va ulaming implantatsiya koeffisienti;

kirishma atomlar implantatsiya va ulaming konsentratsiya koeffisienti.

Ervchanlik berilgan haroratda diffuziya yo`li bilan kristallga kiritish mumkin bo`lgan atomlar konsentratsiyasidir. Ervchanlik,,,,, bog`liqdir.

kirishma atomlari radiusi, massasi va ularning tashqi elektron qobig`idagi elektronlar soniga, asosiy yarim o`tkazgich atomiaridan qanchalik farq qilganligiga;

kirishma atomlari radiusi, massasi va asosiy yarim o`tkazgich atomiaridan qanchalik farq qilganligiga;

Massasi va ularning tashqi elektron qobig`idagi elektronlar soniga, asosiy yarim o`tkazgich atomiaridan qanchalik farq qilganligiga

kirishma atomlari radiusi, massasi va ularning tashqi elektron qobig`idagi elektronlar soniga.

Agar kirishma atomlari bilan yarimo`tkazgichning asosiy atomlari orasidagi tafovut qancha katta bo`lsa, bunday holda kirishma atomlari kristall panjara oralig`ida joylashish ehtimolligibo`ladi.

Katta;

Kichik;

Sezilarli;

O`zgarmas.

Agar kirishma atomlari bilan yarimo'tkazgich materialining asosiy atomlari orasidagi tafovut qancha kam bo`lsa atomlarni kristall panjara tugunlarida joylashish ehtimoliigining katta bo`lishi bilan birga ularning eruvchanligi ham yuqori darajada bo'ladi. Bunday yarimo'tkazgich materiallardeb ataladi. Masalan, Si uchun B, In, Ga, P, As, Sb . . .kabi atomlarni misol qilish mumkin.

- o'rindosh kirishmali qattiq jism;
- o'rindosh qattiq jism;
- o'rindosh yarimo'tkazgich;
- kirishmali yarimo'tkazgich.

Diffuziya koeffisientining qiymati ham kirishma atomlari parametrlari va diffuziya tezligiga bogiiq, ya`ni

- $D = D_0 \exp(-E_d/kT);$
- $D = \exp(-E_d/kT);$
- $D = A \exp(-E_d/kT);$
- $D = D_0 R/\exp(-E_d/kT);$

Agar diffuziya jarayonida jism sirtidagi yoki diffuziya kechayotgan muhitda kirishma atomlar konsentratsiyasi, kirishma atomlarining diffuziya bo`layotgan haroratdagi eruvchanligidan juda katta bo`lsa, ya`ni diffuziya jarayonida kirishma atomlarining sirtdagи qiymati deyarli o`zgarishsiz qolsa, bunday holatni chegaralanmagan manbadan diffuziya deyiadi va uning taqsimoti quyidagi tenglik bilan aniqianadi:

- $N = N_s \cdot \exp(x/2\sqrt{Dt});$
- $N = \exp(x/2\sqrt{Dt});$
- $N = N_s/\exp(x/2\sqrt{Dt});$
- $N = N_s + \exp(x/2\sqrt{Dt}).$

Agar diffuziya jarayonida kirishma atomlarining jism sirtidagi konsentratsiyasi o`zgarib boradigan bo`lsa, bunday holni chegaralangan manbadan diffuziya deyiadi va uning taqsimoti quyidagi tenglik bilan aniqianadi:

$$N(x,t) = \frac{Q}{\sqrt{\pi Dt}} \exp\left(-\frac{x^2}{4Dt}\right);$$

$$N(x,t) = \exp\left(-\frac{x^2}{4Dt}\right);$$

$$N(x,t) = \frac{Q}{\sqrt{\pi Dt}};$$

$$N(x,t) = \frac{Q}{\sqrt{\pi Dt}} + \exp\left(-\frac{x^2}{4Dt}\right).$$

Kirishma atomlarining kristallda- berilgan haroratda diffuziya natijasida kristallga kiritish mumkin bo‘lgan atomlar konsentratsiyasiga aytildi.
 Eruvchanligi;
 Singdiruvchanligi;
 Singuvchanligi;
 Implantatsiyasi.

Eruvchanlik haroratga bog‘liq bo‘lib, harorat oshishi bilan eksponensial qonuniyat bilan oshib boradi va quydagи munosabat bilan aniqlanadi:

$$N = N_0 \exp(-E/kt);$$

$$N = N_0 + \exp(-E/kt);$$

$$N = N_0 / \exp(-E/kt);$$

$$N = N_0 - \exp(-E/kt).$$

Nazariy hisoblashlar ko‘rsatadiki, kirishma atomlarining tugunlarda joylashishi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim, yarimo‘tkazgichning asosiy atomlarining va kirishma atomlari radiuslari bir-biriga juda yaqin bo‘lishi va ularning farqi dan oshmasligi kerak.

14%;
 20%;
 19%;
 18%.

Qattiq jismlardan o’tayotgan tok zichligi J , materialning solishtirma eiektr o‘tkazuvchanligi va unga qo‘yilgan maydonga
 $to’g’ri proporsionaldir, J = \sigma E$ yoki $J = E/\rho;$
 teskari proporsionaldir, $J = \sigma/E$ yoki $J = E \cdot \rho;$
 $J = \sigma + E$ yoki $J = E/\rho;$
 $J = \sigma E$ yoki $J = E\rho.$

Agar tok tashuvchilarning (elektronlar) tezligini bir xil deb hisoblansa, unda tok zichligi quyidagiga teng bo`ladi:

$J = -env;$
 $J = -en\rho;$
 $J = -en\sigma;$
 $J = env.$

Elektronning o’rtacha dreyf tezligi

$v = -eE\tau/m;$
 $v = eE\tau/m;$
 $v = -eE\tau m;$

$$v = -eE\tau + m;$$

Harakatchanlik bu birbirlik elekt maydoni qo‘yilganda elektronlar dreyf tezligining o‘zgarishiga tok tashuvchilaming μ harakatchanligi deyiladi, uning birligi o‘lchanadi.

$$\left[\frac{sm^2}{VS} \right];$$

$$\frac{sm^2}{V};$$

$$\frac{sm^2}{S};$$

$$\frac{sm^3}{VS};$$

- Qattiq jismlarning eiektr o`tkazuvchanligi (σ) ni aniqlaydigan asosiy parametr bu -
 elektronlar konsentratsiyasi va harakatchanligidir;
 elektronlar konsentratsiyasidir;
 elektronlar harakatchanligidir;
 barcha javoblar to`g`ri.

Elektr o`tkazuvchanlik:

$$\sigma = en\mu_n + ep\mu_p;$$

$$\sigma = ep\mu_n + en\mu_p;$$

$$\sigma = en\mu_n - ep\mu_p;$$

$$\sigma = e\mu_n + e\mu_p.$$

Fermi-Dirak taqsimoti:

$$f = \frac{1}{1+g\exp(E-F/kT)};$$

$$f = \frac{1}{1-(E-F/kT)};$$

$$f = \frac{1}{1+g\exp(E+F/kT)};$$

$$f = \frac{1}{1+\exp(E-F/kT)}.$$

Berilgan energetik sathning kovaklar bilan band bo`lish ehtimolligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$(1-f) = \frac{1}{1+g\exp(E-F/kT)};$$

$$(1+f) = \frac{1}{1+g\exp(E-F/kT)};$$

$$(1 - f) = \frac{2}{1 + g \exp(E - F/kT)};$$

$$(1 - f) = \frac{3}{1 + g \exp(E - F/kT)}.$$

Xususiy yarimo`tkazgichlar uchun neytrallik tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$n = p = n_i;$$

$$n = p + n_i;$$

$$n = p - n_i;$$

$$n = p = N.$$

Fermi sathini to`g`ri aniqlash juda katta ahamiyatga ega, chunki f ning qiymatini bilish bilan, yarimo`tkazgich materialining ta`qiqlangan sohasidagi barcha energetik sathlarninganiqlash mumkin bo`ladi.

elektronlar bilan band bo`lish ehtimolligini;

kovaklar bilan band bo`lish ehtimolligini;

atomlar bilan band bo`lish ehtimolligini;

to`g`ri javob yo`q.

Xususiy yarimo`tkazgichlarda erkin elektronlar va kovaklaming konsentratsiyasi

.....

o`zaro teng bo`ladi;

o`zaro teng bo`lmaydi;

o`zgaruvchan bo`ladi;

to`g`ri javob yo`q.

Xususiy yarimo`tkazgichlarda Fermi sathi taqiqlangan soha.....

o`rtasida yotadi;

pastki qismida yotadi;

yuqori qismida yotadi;

to`g`ri javob yo`q.

Xususiy yarimo`tkazgichlarda tok tashuvchilar konsentratsiyasi:

$$n_i^2 = n \cdot p, n_i = (N_c \cdot N_v)^{1/2} \cdot \exp(-E_g/2kT);$$

$$n_i^2 = n \cdot p, n_i = (N_c \cdot N_v)^{1/2} + \exp(-E_g/2kT);$$

$$n_i^2 = n \cdot p, n_i = (N_c \cdot N_v)^{1/2} - \exp(-E_g/2kT);$$

$$n_i^2 = n \cdot p, n_i = (N_c \cdot N_v)^{1/2} \cdot \exp(E_g/2kT).$$

Xususiy yarimo`tkazgichlarda tok tashuvchilar konsentratsiyasini taqiqlangan soha kengligi oshib borishi bilan eksponensialhamda berilgan E_g

qiymatida harorat oshishi bilan n_i , eksponensial qonun bilanko'rsatadi.
kamayib borishini, oshib borishini;
oshib borishini, kamayib borishini;
faqat oshib borishini;
faqat kamayib borishini.

Yarimo'tkazgichlarda Eg ning qiymati doimiy emas balki, harorat oshishi bilan o'zgaradi:
$E_g = E_{g0}(1-\alpha T)$;
$E_g = E_{g0}(1+\alpha T)$;
$E_g = E_{g0}(1/\alpha T)$;
$E_g = E_{g0} + (1-\alpha T)$.

Agar materialga N_d konsentratsiyasi va energetik sath energiyasi E_d teng donor kirishma atomlari kiritilgan bo`lsa, u holda neytrallik tenglamasi donor atomlari to`la ionlashgan holatda quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:
$n = n_0 + n_d$, $n_d = N_d$, $n_0 + n_d = N_d + p$;
$n = n_0 + n_d$, $n_d \neq N_d$, $n_0 + n_d = N_d + p$;
$n = n_0 + n_d$, $n_d = N_d$, $n_0 + n_d \neq N_d + p$;
$n \neq n_0 + n_d$, $n_d = N_d$, $n_0 + n_d = N_d + p$.

Fermi-Dirak taqsimotini yarimo'tkazgich materialarda qo'llashdan maqsad, tok tashuvchilar konsentratsiyasining yarimo'tkazgich materiallarining asosiyhamdaaniqlash imkonini beradi.
fundamental parametrlari, kirishma atomlari asosiy parametrlarini;
fundamental parametrlari;
